TALIM TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA BO‘LAJAK BOSHLANG‘ICH SINF O‘QITUVCHILARINING KASBIY-REFLEKSIV KOMPETENTSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION YECHIMLARI

Talabova Dilrabo Tolibovna
Farg‘ona viloyati Pedagogik mahorat markazi “Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedrasi mudiri p.f.f.d (PhD),dotsent
DOI:https://doi.org/10.5281/zenodo.24438376

Annotatsiya: Mazkur maqolada talim transformatsiyasi sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy-refleksiv kompetentsiyalarini rivojlantirishning pedagogik va metodik asoslari tahlil qilingan. Zamonaviy talim muhitida o‘qituvchining kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish, pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish, o‘z faoliyatiga tanqidiy baho berish, mustaqil qaror qabul qilish hamda uzluksiz kasbiy rivojlanishga tayyorligini taminlash masalalari yoritilgan. Shuningdek, kasbiy-refleksiv kompetentsiyaning motivatsion-qadriyatli, kognitiv, texnologik va refleksiv komponentlari mazmuni ochib berilgan. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining mazkur kompetentsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion metodik echimlar, pedagogik shart-sharoitlar va metodik tizimning ustuvor yo‘nalishlari asoslangan.

Kalit so‘zlar: talim transformatsiyasi, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi, kasbiy kompetentsiya, refleksiya, kasbiy-refleksiv kompetentsiya, metodik tizim, pedagogik texnologiya, innovatsion yondashuv, kasbiy rivojlanish, pedagogik faoliyat.

Аннотация: В статье анализируются педагогические и методические основы развития профессионально-рефлексивных компетенций будущих учителей начальных классов в условиях трансформации образования. Рассматриваются вопросы формирования способности будущего учителя анализировать собственную профессиональную деятельность, критически оценивать результаты педагогических действий, принимать самостоятельные решения и осуществлять непрерывное профессиональное развитие. Раскрывается содержание мотивационно-ценностного, когнитивного, технологического и рефлексивного компонентов профессионально-рефлексивной компетенции. Обосновываются инновационные методические решения и педагогические условия, направленные на совершенствование методической системы развития данных компетенций.
Ключевые слова: трансформация образования, будущий учитель начальных классов, профессиональная компетенция, рефлексия, профессионально-рефлексивная компетенция, методическая система, инновационные технологии, профессиональное развитие.

ABSTRACT

The article examines the pedagogical and methodological foundations of developing professional-reflexive competencies of future primary school teachers in the context of educational transformation. It focuses on the ability of future teachers to analyze their professional activities, critically evaluate teaching outcomes, make independent pedagogical decisions, and engage in continuous professional development. The motivational-value, cognitive, technological, and reflexive components of professional-reflexive competence are described. Innovative methodological solutions and pedagogical conditions for improving the methodological system of competence development are substantiated.

Keywords: educational transformation, future primary school teacher, professional competence, reflection, professional-reflexive competence, methodological system, innovative technologies, professional development.

KIRISH

Bugungi globallashuv, raqamlashtirish va innovatsion o‘zgarishlar sharoitida talim tizimining mazmuni, maqsadi va tashkiliy-metodik asoslari tubdan yangilanmoqda. Jahon talim makonida kechayotgan transformatsion jarayonlar pedagog kadrlar tayyorlash tizimi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Xususan, zamonaviy o‘qituvchi nafaqat muayyan fan sohasidagi bilimlarni o‘zlashtirgan mutaxassis, balki o‘z kasbiy faoliyatini tahlil qila oladigan, pedagogik vaziyatlarga tanqidiy yondashadigan, talim jarayonida yuzaga keladigan muammolarga mustaqil echim topadigan va o‘z kasbiy rivojlanishini uzluksiz takomillashtirib boradigan subekt sifatida shakllanishi zarur.

O‘zbekistonda talim sifatini oshirish, pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, talim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarni joriy etish davlat talim siyosatining muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayonda bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning mazmunini yangilash, ularda mustaqil fikrlash, pedagogik ijodkorlik, o‘z faoliyatini baholash va refleksiv yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, boshlang‘ich talim bosqichida o‘qituvchining kasbiy mahorati, pedagogik munosabati, bolalarning individual xususiyatlarini anglashi va talim natijalarini tahlil qila olishi o‘quvchilarning keyingi talim faoliyati uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu bois bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini tayyorlash jarayonida kasbiy bilim va amaliy ko‘nikmalar bilan bir qatorda refleksiv kompetentsiyalarni shakllantirish ham ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralishi lozim.

Tadqiqot muammosining dolzarbligi shundaki, ananaviy pedagogik tayyorgarlik ko‘p hollarda nazariy bilimlarni o‘zlashtirish va ularni amaliyotda qo‘llashga yo‘naltirilgan bo‘lsa, transformatsiyalashgan talim muhiti o‘qituvchidan o‘z faoliyatining mazmuni, jarayoni va natijalarini muntazam tahlil qilishni, pedagogik qarorlarining samaradorligini baholashni hamda o‘z kasbiy imkoniyatlarini mustaqil rivojlantirishni talab etmoqda.

Mazkur ehtiyoj bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy-refleksiv kompetentsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik tizimni takomillashtirish zaruratini belgilaydi.

Pedagogik faoliyatda refleksiya muammosi xorijiy va mahalliy pedagogik-psixologik tadqiqotlarda muhim ilmiy yo‘nalish sifatida o‘rganilgan.

Amerikalik tadqiqotchi D. Shyonning professional refleksiyaga oid qarashlarida mutaxassisning kasbiy faoliyat jarayonida va undan keyin o‘z harakatlarini tahlil qilishi, mavjud vaziyatga nisbatan yangi yondashuvlarni ishlab chiqishi muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslangan. Olimning «harakat jarayonidagi refleksiya» (reflection-in-action) va «harakatdan keyingi refleksiya» (reflection-on-action) tushunchalari pedagogik faoliyatni takomillashtirishning nazariy asoslarini belgilashda muhim o‘rin tutadi.

L.S. Vыgotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasida shaxsning rivojlanishi ijtimoiy muhit, faoliyat va o‘zaro tasir jarayonlari bilan bog‘liq holda talqin etiladi. Ushbu yondashuv bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy shakllanishida hamkorlik, muloqot, mustaqil faoliyat va o‘z imkoniyatlarini anglash jarayonlarining ahamiyatini belgilashga yordam beradi.

J. Dyui o‘zining refleksiv fikrlashga oid qarashlarida muammoli vaziyatlarni anglash, dalillarni tahlil qilish, xulosa chiqarish va asoslangan qaror qabul qilishni tafakkur rivojlanishining muhim sharti sifatida etirof etadi.

Mazkur ilmiy yondashuvlardan kelib chiqib, kasbiy-refleksiv kompetentsiyani o‘qituvchining o‘z kasbiy faoliyatini anglash, tahlil qilish, baholash, natijalarni prognozlash va faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan integrativ kasbiy sifati sifatida talqin etish mumkin.

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, kompetentsiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan va refleksiv yondashuvlar tashkil etadi.

Tizimli yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-refleksiv kompetentsiyalarini o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismlar asosida rivojlantirish imkonini beradi.

Kompetentsiyaviy yondashuv nazariy bilimlarni amaliy pedagogik faoliyatda qo‘llash, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish va kasbiy vazifalarni samarali hal etishga yo‘naltiradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv bo‘lajak o‘qituvchining individual xususiyatlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va kasbiy rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olishni nazarda tutadi.

Faoliyatga asoslangan yondashuv pedagogik amaliyot, mustaqil topshiriqlar, loyihalar va muammoli vaziyatlar orqali kasbiy tajriba orttirishni taminlaydi.

Refleksiv yondashuv o‘z faoliyatini anglash, uning natijalarini tahlil qilish, xatolar sabablarini aniqlash va keyingi faoliyatni takomillashtirish mexanizmlarini rivojlantiradi.

Ushbu yondashuvlarning integratsiyasi bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy-refleksiv kompetentsiyalarini rivojlantirish metodik tizimini takomillashtirishning kontseptual asosini tashkil etadi.

Mazkur maqolada ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tizimlashtirish, pedagogik modellashtirish va nazariy loyihalash metodlaridan foydalanildi.

Tahlil jarayonida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy-refleksiv kompetentsiyalarini rivojlantirishga tasir etuvchi omillar, ularning tarkibiy tuzilishi, pedagogik shart-sharoitlari va metodik taminotini takomillashtirish yo‘nalishlari aniqlashtirildi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi talim transformatsiyasi sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy-refleksiv kompetentsiyalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslarini takomillashtirish va samarali innovatsion echimlarni asoslashdan iborat.

Maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi:

• kasbiy-refleksiv kompetentsiyaning pedagogik mazmuni va mohiyatini aniqlashtirish;
• uning tarkibiy komponentlari va ular o‘rtasidagi funktsional aloqadorlikni asoslash;
• kompetentsiyalarni rivojlantirishga tasir etuvchi pedagogik shart-sharoitlarni belgilash;
• innovatsion pedagogik texnologiyalar va metodik vositalar imkoniyatlarini aniqlash;
• bo‘lajak o‘qituvchilarning refleksiv faoliyatini tashkil etishga qaratilgan metodik echimlarni ishlab chiqish.

1. Kasbiy-refleksiv kompetentsiyaning mazmuni va tarkibiy tuzilishi

Talim transformatsiyasi sharoitida kasbiy-refleksiv kompetentsiya bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligini belgilovchi muhim integrativ sifatlardan biri hisoblanadi.

Ushbu kompetentsiya o‘qituvchining pedagogik faoliyatga bo‘lgan munosabati, kasbiy bilimlari, amaliy faoliyatni tashkil etish qobiliyati va o‘z faoliyati natijalarini mustaqil baholash imkoniyatlarini birlashtiradi.

Kasbiy-refleksiv kompetentsiya – bu bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘z kasbiy faoliyatini anglash, pedagogik jarayonlarni tahlil qilish, qabul qilingan qarorlarning samaradorligini baholash, muammoli vaziyatlarda maqbul echimlarni tanlash va uzluksiz kasbiy rivojlanishni taminlashga qaratilgan integrativ qobiliyatidir.

Mazkur kompetentsiyani rivojlantirishda uning tarkibiy komponentlarini aniq belgilash muhim metodologik ahamiyatga ega.

1. Motivatsion-qadriyatli komponent. Ushbu komponent bo‘lajak o‘qituvchining pedagogik kasbga bo‘lgan munosabati, kasbiy masuliyati, o‘z ustida ishlashga intilishi, talim oluvchi shaxsiga hurmat va kasbiy faoliyatga nisbatan ijobiy motivatsiyasini ifodalaydi. Mazkur komponentni rivojlantirish orqali talabalarda kasbiy maqsadlarni belgilash, pedagogik faoliyatga ongli munosabatda bo‘lish, o‘z imkoniyatlariga ishonch va kasbiy o‘sish ehtiyojini shakllantirish mumkin.

2. Kognitiv komponent. Kognitiv komponent bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy bilimlari, pedagogik jarayon qonuniyatlarini anglashi, refleksiyaning nazariy asoslarini bilishi, talim jarayonini tahlil qilish va pedagogik vaziyatlarning sabab-oqibatlarini aniqlash qobiliyatini qamrab oladi. Ushbu komponent doirasida talabalarda tanqidiy fikrlash, tahliliy mulohaza yuritish, axborotni saralash, pedagogik muammolarga ilmiy yondashish ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

3. Texnologik komponent. Texnologik komponent nazariy bilimlarni amaliy pedagogik faoliyatga tatbiq etish, zamonaviy talim texnologiyalaridan maqsadli foydalanish, pedagogik vaziyatlarni hal qilish va refleksiv faoliyatni tashkil etish qobiliyatini ifodalaydi. Unda mikrodarslar, pedagogik keyslar, loyihalash, raqamli portfolio, videotahlil, hamkorlikdagi talim va interaktiv metodlar muhim vosita hisoblanadi.

4. Refleksiv komponent. Refleksiv komponent bo‘lajak o‘qituvchining o‘z faoliyatini mustaqil tahlil qilishi, yutuq va kamchiliklarini aniqlashi, o‘zini baholashi, pedagogik qarorlarini qayta ko‘rib chiqishi va kelgusi faoliyatini rejalashtirish qobiliyatini qamrab oladi. Mazkur komponent kasbiy-refleksiv kompetentsiyaning natijaviy va integrativ xususiyatini namoyon etadi.

Komponentlar o‘rtasidagi aloqadorlik quyidagicha izohlanadi: motivatsion-qadriyatli komponent kasbiy rivojlanishga ichki ehtiyojni shakllantiradi; kognitiv komponent faoliyatni anglash uchun zarur bilimlar bilan taminlaydi; texnologik komponent bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etadi; refleksiv komponent esa amalga oshirilgan faoliyatni tahlil qilish va uni takomillashtirishni taminlaydi. Demak, mazkur komponentlar alohida emas, balki yagona dinamik jarayon sifatida amal qiladi.

Talim transformatsiyasi sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini tayyorlashda ananaviy talim metodlari bilan bir qatorda innovatsion yondashuvlardan foydalanish zarur. Bunda metodik tizimning samaradorligi nafaqat qo‘llanilayotgan texnologiyalarga, balki ularning aniq pedagogik maqsad, mazmun va kutilayotgan natijalar bilan muvofiqligiga ham bog‘liq.

Refleksiv mikrodars texnologiyasi. Mazkur texnologiyada talabalar tomonidan muayyan boshlang‘ich talim mavzusi asosida qisqa dars fragmenti ishlab chiqiladi va namoyish etiladi. Dars jarayoni videoga olinib, keyinchalik talaba o‘zining pedagogik harakatlari, savol berish uslubi, vaqtdan foydalanishi, o‘quvchilar bilan muloqoti va talim natijalarini tahlil qiladi. Bu jarayonda «Men nimani maqsad qildim?», «Maqsadga qay darajada erishdim?», «Qanday pedagogik qarorlar samarali bo‘ldi?», «Keyingi darsimda nimani o‘zgartiraman?» kabi savollar asosiy refleksiv vosita vazifasini bajaradi.

Pedagogik keyslar texnologiyasi. Bo‘lajak o‘qituvchilarga boshlang‘ich sinf talimida uchraydigan real yoki modellashtirilgan muammoli vaziyatlar taqdim etiladi. Masalan, o‘quvchining darsda faol ishtirok etmasligi, sinfda individual farqlarning mavjudligi, o‘quvchilar o‘rtasidagi nizolar yoki talim natijalarining pastligi kabi vaziyatlar tahlil qilinadi. Talabalar muammoning sabablarini aniqlaydi, muqobil pedagogik echimlarni ishlab chiqadi va tanlangan qarorni ilmiy-pedagogik jihatdan asoslaydi.

Raqamli refleksiv portfolio. Ushbu vosita talabaning kasbiy rivojlanish dinamikasini kuzatish imkonini beradi. Portfolioga mikrodarslar, dars rejalari, mustaqil ishlar, o‘zini baholash varaqalari, pedagogik amaliyot natijalari va shaxsiy rivojlanish rejalari joylashtiriladi. Raqamli portfolio talabaning kasbiy o‘sishini hujjatlashtirish, o‘zgarishlarni taqqoslash va kelgusi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilashga xizmat qiladi.

Tengdoshlar refleksiyasi. Mazkur yondashuvda talabalar bir-birining mikrodarslari va pedagogik loyihalarini belgilangan mezonlar asosida baholaydi. Bunda konstruktiv fikr bildirish, dalillarga asoslangan tahlil qilish va takliflar berish ko‘nikmalari shakllantiriladi.

Refleksiv loyihalash texnologiyasi. Talabalar muayyan pedagogik muammoni mustaqil tanlaydi, uning sabablarini o‘rganadi, echimga qaratilgan metodik loyiha ishlab chiqadi,

amaliyotda sinovdan o‘tkazadi va natijalarini tahlil qiladi. Ushbu texnologiya nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan bog‘lash va kasbiy mustaqillikni rivojlantirishga yordam beradi.

3. Kasbiy-refleksiv kompetentsiyalarni rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari

Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy-refleksiv kompetentsiyalarini samarali rivojlantirish uchun muayyan pedagogik shart-sharoitlarni taminlash talab etiladi.

Birinchidan, refleksiv talim muhitini yaratish zarur. Bunday muhitda talaba o‘z fikrini erkin ifodalashi, xatolarini tan olishi, pedagogik faoliyatini tahlil qilishi va mustaqil xulosa chiqarishi uchun imkoniyatga ega bo‘lishi kerak.

Ikkinchidan, nazariy va amaliy tayyorgarlik integratsiyasini taminlash lozim. Pedagogika, psixologiya, boshlang‘ich talim metodikasi va raqamli texnologiyalarga oid bilimlar pedagogik amaliyot bilan uzviy bog‘lanishi zarur.

Uchinchidan, individual kasbiy rivojlanish traektoriyasini shakllantirish muhim. Har bir talabaning boshlang‘ich tayyorgarlik darajasi, qiziqishi va kasbiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda shaxsiy rivojlanish rejasi ishlab chiqilishi maqsadga muvofiq.

To‘rtinchidan, raqamli va interaktiv talim vositalaridan maqsadli foydalanish talab etiladi. Raqamli platformalar, videotahlil, elektron portfolio va virtual hamkorlik muhiti refleksiv faoliyatni tizimli tashkil etish imkoniyatini kengaytiradi.

Beshinchidan, refleksiv baholash va o‘zini o‘zi baholash mexanizmlarini joriy etish zarur. Bunda talabaning faqat yakuniy natijasi emas, balki kasbiy rivojlanish jarayoni, mustaqilligi, tahliliy fikrlashi va o‘zgarishlarga tayyorligi ham hisobga olinishi lozim.

4. Metodik tizimni takomillashtirishning ustuvor yo‘nalishlari

Kasbiy-refleksiv kompetentsiyalarni rivojlantirish metodik tizimi maqsadli, mazmuniy, jarayoniy-texnologik va natijaviy komponentlarning o‘zaro muvofiqligi asosida takomillashtirilishi maqsadga muvofiq.

Maqsadli komponent bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy-refleksiv kompetentsiyalarni rivojlantirishning maqsadi, vazifalari va kutilayotgan natijalarini belgilaydi.

Mazmuniy komponent talim mazmuniga refleksiv bilimlar, kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish materiallari, mustaqil izlanish va metodik loyihalash topshiriqlarini kiritishni nazarda tutadi.

Jarayoniy-texnologik komponent talim jarayonida muammoli talim, keys-stadi, refleksiv mikrodars, raqamli portfolio, loyihalash va tengdoshlar baholash kabi texnologiyalardan foydalanishni qamrab oladi.

Natijaviy komponent talabalarda kasbiy-refleksiv kompetentsiyalarning rivojlanganlik darajasini baholash, erishilgan natijalarni tahlil qilish va metodik tizimni takomillashtirishni taminlaydi.

Mazkur komponentlarning o‘zaro aloqadorligi quyidagi metodik ketma-ketlikda namoyon bo‘ladi:

- Kasbiy ehtiyoj va refleksiv motivatsiyani shakllantirish.
- Refleksiv va kasbiy bilimlarni o‘zlashtirish.
- Pedagogik vaziyatlarni tahlil qilish va amaliy faoliyatni tashkil etish.
- O‘z faoliyatini baholash va refleksiv xulosalar chiqarish.
- Shaxsiy kasbiy rivojlanish traektoriyasini belgilash.

Ushbu ketma-ketlik kasbiy-refleksiv kompetentsiyalarning izchil va uzluksiz rivojlanishini taminlashga xizmat qiladi.

Metodik tizimning amaliy natijadorligini aniqlashda quyidagi mezonlardan foydalanish mumkin:

- motivatsion-qadriyatli mezon – kasbiy faoliyatga qiziqish, masuliyat va o‘z ustida ishlashga intilish;
- kognitiv mezon – kasbiy bilimlar, refleksiv tushunchalar va tahliliy fikrlash darajasi;
- texnologik mezon – pedagogik vaziyatlarni hal etish, zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash va mustaqil faoliyatni tashkil etish qobiliyati;

• refleksiv mezon – o‘z faoliyatini tahlil qilish, baholash, xatolarni aniqlash va keyingi faoliyatni takomillashtirish qobiliyati.

Ushbu mezonlar asosida yuqori, o‘rta va past rivojlanganlik darajalarini belgilash mumkin. Bunda har bir daraja tegishli ko‘rsatkichlar va diagnostik topshiriqlar orqali aniqlanishi lozim. Shuni alohida takidlash kerakki, mazkur mezonlar faqat yakuniy baholash vositasi emas, balki talim jarayonini individuallashtirish va metodik tizim samaradorligini muntazam takomillashtirish mexanizmi sifatida ham xizmat qiladi.

Mazkur yondashuv bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisini tayyorlash jarayonida bilimlarni o‘zlashtiruvchi talabadan o‘z kasbiy faoliyatini anglaydigan, mustaqil tahlil qiladigan va uzluksiz rivojlanishga tayyor mutaxassisni shakllantirishga xizmat qiladi.

Talim transformatsiyasi sharoitida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy-refleksiv kompetentsiyalarini rivojlantirish pedagog kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirishning muhim ilmiy-metodik yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

1. Kasbiy-refleksiv kompetentsiya bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining o‘z kasbiy faoliyatini anglash, tahlil qilish, baholash va takomillashtirishga qaratilgan integrativ kasbiy sifati sifatida namoyon bo‘ladi.

2. Uning motivatsion-qadriyatli, kognitiv, texnologik va refleksiv komponentlari o‘zaro uzviy bog‘liq bo‘lib, yagona funktsional tizimni tashkil etadi.

3. Kasbiy-refleksiv kompetentsiyalarni rivojlantirishda tizimli, kompetentsiyaviy, shaxsga yo‘naltirilgan, faoliyatga asoslangan va refleksiv yondashuvlarning integratsiyasi muhim ahamiyatga ega.

4. Refleksiv mikrodars, pedagogik keyslar, raqamli portfolio, tengdoshlar refleksiyasi va refleksiv loyihalash texnologiyalaridan maqsadli foydalanish talabalarning kasbiy faoliyatni tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish imkoniyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

5. Metodik tizimning samaradorligi maqsadli, mazmuniy, jarayoniy-texnologik va natijaviy komponentlarning o‘zaro muvofiqligi, shuningdek, refleksiv talim muhiti va individual kasbiy rivojlanish traektoriyasini taminlash bilan belgilanadi.

Shunday qilib, bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining kasbiy-refleksiv kompetentsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik tizimni takomillashtirish zamonaviy talim talablariga javob beradigan, o‘z faoliyatiga tanqidiy yondashadigan, mustaqil pedagogik qaror qabul qiladigan va uzluksiz kasbiy rivojlanishga intiladigan raqobatbardosh pedagog kadrlarni tayyorlashning muhim omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYoTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining «Talim to‘g‘risida»gi Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr, O‘RQ-637-son.
2. Xamroyeva N.Sh. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini refleksiv faoliyatga tayyorlashning metodik asoslari // IQRO jurnali. – 2025. – 16-jild, 1-son. – B. 107–109. – DOI: https://doi.org/10.71337/inlibrary.uz.iqro.104326.
3. Donabayeva Z. Refleksiv yondashuv asosida bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining pedagogik kompetentligini rivojlantirish metodikasi // Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. – 2026. – 4-jild, 5-son. – DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.20117311.
4. Bomurodova G.J. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi refleksiv kompetensiyasining mazmuni, tarkibiy tuzilmasi va rivojlanish darajalari // Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali. – 2026. – 4-jild, 10-son. – B. 218–222. – DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.23768964.
5. Nabiyeva D.T. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini kasbiy faoliyatga metodik tayyorlash // Ta’lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2024. – 4-jild, 8-son. – B. 108–110.